

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2021- yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-dekabr oylarida **2 459,0 ming so'mni tashkil etdi.** Viloyat hududlari bo'yicha ko'radiang bo'sak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shaharda **3 147,5** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **128,0** %), Jomboy tumanida **2 524,0** ming so'mni (**102,6** %), tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Paxtachi tumanida **1 881,7** ming so'mni (**76,5** %), Qo'shrabot tumanida **1 884,7** ming so'mni (**76,6** %), Oqdaryo tumanida **1 911,1** ming so'mni (**77,7** %), Kattaqo'rg'on tumanida **1 913,6** ming so'mni (**77,8** %) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlarisiz, %da)



■ Viloyatga nisbatan hududlar kesimida, foizda


Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020- yil yanvar- dekabr	2021- yil yanvar- dekabr	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	2117,4	2459,0	116,1
Samarqand sh.	2625,7	3147,5	119,9
Kattaqo'rg'on sh.	1902,8	2135,1	112,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1671,2	1911,1	114,4
Bulung'ur	1764,7	2119,5	120,1
Jomboy	2327,3	2524,0	108,5
Ishtixon	1699,8	1918,4	112,9
Kattaqo'rg'on	1747,7	1913,6	109,5
Qo'shrabot	1798,1	1884,7	104,8
Narpay	1728,6	2226,2	128,8
Payariq	1700,6	2033,7	119,6
Pastdarg'om	2152,7	2422,7	112,5
Paxtachi	1609,2	1881,7	116,9
Samarqand	1763,8	2163,7	122,7
Nurobod	1897,4	2176,2	114,7
Urgut	1965,6	2167,9	110,3
Toyloq	1838,6	2112,5	114,9


Hududlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)




■ 2020- yil yanvar-dekabr □ 2021- yil yanvar-dekabr □ O’sish sur’ati, %

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr, viloyat ko'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 956,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 3,7 % ga oshdi.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 178,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 13,0 % ga oshdi.

- **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 913,2 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 4,7 % ga oshdi.



- **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 657,6 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 36,9 % ga oshdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 438,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 42,6 % ga oshdi.



- **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 984,8 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 16,3 % ga oshdi.

- **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 178,8 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 13,6 % ga oshdi.




- **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 037,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 18,8 % ga oshdi.

Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 794,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 26,2 % ga oshdi.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlarisiz, ming so'm)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, ga %.

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari)

Samarqand viloyati bo'yicha 2021 yil yanvar-dekabr oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqa sohasida **42,6 %**, tashish va saqlash sohasida **36,9 %**, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **18,8 %**, qishloq xo'jaligi sohasida 18%, moliya va sug'urta sohasida **16,3 %**, ta'lim sohasida **13,6 %**, qurilish sohasida **13,0 %** kuzatildi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 - yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda





“O’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko’rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko’rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to’lovlarni o’z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to’lashning tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O’zbekiston Respublikasining 25.12.2020- yildagi Davlat byudjeti to’g’risida»gi Qonuni, 17.08.2021 yildagi PQ-6279-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to’lashning eng kam miqdori 822 000 so’mni tashkil etadi.



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo’limi**
(66) 235-72-35